

“Globallashuv sharoitida tillarni o‘qitishning innovatsion strategiyalari”
Mavzu: Koreys tilida emotsiyani ifodalovchi sifatlar va ularning o‘ziga xos xususiyatlari

Aslonova Husnida Botirjon qizi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Koreys filologiyasi kafedrasida o‘qituvchisi
+99897 7705319
husnidaaslonova@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqola koreys tilidagi emotsiyani ifodalovchi sifatlar va ularning o‘ziga xos xususiyatlariga bag‘ishlanadi. Unda koreys tilida emotsional bo‘yoqdorlikka ega gaplarning qanday yasalishi, nimalar asosida yasalishi va qanday ma‘no anglatishi chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, koreys tilidagi emotsiyani ifodalovchi sifatlar asosan qanday grammatik qo‘shimchalar bilan qo‘llanilishi mumkin va qaysilari bilan qo‘llanila olmasligi o‘rganilinadi.

Kalit so‘zlar: Emotsiya, emotsiyani ifodalovchi sifatlar, undov gap, holat bilan aloqador sifatlar, holat bilan aloqasiz sifatlar.

Аннотация

Данная научная статья посвящена прилагательным, выражающим эмоции в корейском языке, и их характеристике. В нем глубоко анализируется, как составлять предложения с эмоциональной окраской на корейском языке, на чем они основаны и в чем их смысл. Также изучаются прилагательные, выражающие эмоции в корейском языке, в основном, с какими грамматическими наречиями можно употреблять, а с какими нельзя.

Ключевые слова: Эмоция, эмоциональные прилагательные, восклицательное предложение, ситуативные прилагательные, неситуативные прилагательные.

Annotation

This scientific article is devoted to adjectives expressing emotions in the Korean language and their characteristics. It takes an in-depth look at how to write emotional sentences in Korean, what they are based on, and what their meaning is. Adjectives that express emotions in Korean are also studied, mainly which grammatical adverbs can be used with and which cannot.

Kew words: Emotion, emotional adjectives, exclamation sentence, situational adjectives, non-situational adjectives.

Kirish

Ma‘lumki, har bir tilda shu tilda so‘zlashuvchi xalqning madaniyati, turmush tarzi va qadriyatlari bevosita o‘z aksini topadi. Shuningdek, til doim jamiyat bilan uzviy

bog‘liq bo‘lib, ularni bir-birisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Ushbu bog‘liqlikning asosiy komponenti bo‘lgan tilning vujudga kelishida esa, undovlar to‘g‘risidagi farazlar ham mavjud. Koreys tilini o‘rganayotgan talabalar koreys tilidagi undov gaplarni ona tilida mavjud undov gaplarning xususiyatlari bilan solishtirish va talqin qilish natijasida ko‘pgina muammoli vaziyatlarga duch kelishadi. Shu bilan birga, koreys tilidagi ba‘zi undov gaplar oxirida undov tinish belgisi qo‘yilmay berilishi ham, ularni undov gap sifatida o‘rganishdagi qator muammolarni yuzaga keltiradi. Boshqa tillardan farqli o‘laroq, koreys tilida so‘zlovchi hissiyotini ifodalashda undov so‘z, undov kesimlik qo‘shimchalari va emotsiyani ifodalovchi sifatlardan keng foydalaniladi. Quyida aynan koreys tilidagi emotsiyani ifodalovchi sifatlar haqida fikr yuritamiz.

Asosiy qism

Koreys tilida emotsiyani ifodalash uchun gaplarda emotsional sifatlardan ham keng foydalaniladi. Bu haqida ham ko‘plab tilshunos olimlar o‘z ilmiy qarashlarini bayon etib qoldirganlar. Jumladan, Li Ho Sing (이호승) shunday fikr bildirgan:

“감정형용사도 형용사에 속하므로 주어 명사구의 성질이나 상태를 표현한다. 그리하여 형용사 검증틀로 흔히 사용되는 ‘무엇이 어떠하다’의 ‘어떠하다’ 자리를 채울 수 있어야 하고 행위적 의미가 배제되어야 한다. 감정형용사가 뜻하는 것은 행위를 일으키는 것이 아니라 경험주 주어가 경험하는 감정적 상태를 나타내는 것이다. 즉 감정형용사는 [-행위], [+상태]의 자질을 갖는다. 따라서 감정형용사는 진행상 보조동사인 ‘-고 있다’와 결합할 수 없다 ” [1.108.]

(Emotsiyani ifodalovchi sifatlar ham sifatlar sarasiga kirib, ega va otning sifat va holatini ifodalaydi. Biroq, sifat deganda yodimizga tushadigan “nimani qanday?” ning “qanday?” o‘rnini o‘chirish mumkin va uni harakatga ko‘chirish mumkin. Emotsional sifatlar harakatni emas, balki, ishtirokchi boshidan kechirayotgan emotsional holatni ifodalaydi. Yani, emotsional sifatlar holat va harakatni birlashtirib ifodalaydi. Shu sababli ular ‘-고 있다’ bilan birga qo‘llanila olmaydi.)

1.가. 나는 호랑이를 무서워한다.

(Men yo ‘lbarsdan qo ‘rqaman.)

가’ 나는 호랑이를 무서워하고 있다.

(Men yo ‘lbarsdan qo ‘rqayapman.)

나. 나는 그때 그녀를 사랑했다.

(Men o ‘sha paytda uni yaxshi ko ‘rardim.)

나’. 나는 그때 그녀를 사랑하고 있었다.

(Men o ‘sha paytda uni yaxshi ko ‘rayotgan edim.)

Yuqoridagi misollar bizga oddiy sifatlar bilan emotsiyani ifodalovchi sifatlarini bir-biridan qanday farqlashimizda katta yordam beradi. Birinchi misolda *무서워한다* qo‘rquvni bildiradi va u ikkinchi misolda bemaolol ‘-고 있다’ qo‘shimchasi bilan qo‘llanilmoqda. Keyingi misolda esa *사랑했다* yaxshi ko‘rganlikni bildirib keyingi gapda ham hech qanday g‘ayrioddiyliksiz ‘-고 있다’ bilan ifodalanishini guvohi bo‘lishingiz mumkin. Bu tahlil esa yuqorida emotsional sifatlar haqida keltirgan nazariyamizning yaqqol isboti bo‘lib xizmat qiliadi. Ya’ni, bu ikki sifat hech qanaqasiga emotsiyani ifodalovchi sifat bo‘la olmaydi.

2. 가. 나는 지금 매우 슬프다.

(Men hozir juda xafaman.)

가'. *나는 지금 매우 슬프고 있다.

(Men hozir juda xafa bo‘layapman.)

나. 나는 영희가 예쁘다.

(Men uchun Yonghi chiroyli.)

나'. *나는 영희가 예쁘고 있었었다.

(Men uchun Yonghi chiroyli bo‘layapti*)

Endi esa ikkinchi guruh misollarni tahlil qilib ko‘ramiz. Bu yerda birinchi gapda *슬프다* ishtirok etgan bo‘lib, u xafagarchilikni bildiradi, shuning uchun birinchi gapda mantiqsizlik kuzatilmaydi. Ammo ikkinchi gapda *슬프고 있다* noto‘g‘ri qo‘llangan. Gapda mantiq yo‘q. Ya’ni, *슬프다* bilan ‘-고 있다’ni qo‘llab bo‘lmaydi. Keyingi misolda *예쁘다* o‘z ma’nosida to‘g‘ri ishlatilgan, lekin keyingi gapda ‘-고 있다’ bilan noto‘g‘ri qo‘llanilgan bo‘lib, gapda mantiqsizlik yuzaga kelgan. Bu tahlillar esa ushbu ikki sifatni emotsiyani ifodalovchi sifat ekanligini isbotlaydi.

Li Ho Sing (이호승) emotsional sifatlar haqidagi fikrini davom ettirib shunday fikr bildirgan:

“감정은 어떠한 원인에 자극을 받아 발생하는 경험주의 일시적이고 순간적인 심리상태이기 때문에, 지속적이거나 고유한 본질적 특성일 수 없다. 이러한 [-속성]의 자질을 갖는 감정형용사는 한국어에서 [늘 ~ 하다/ ~ 한 성질이 있다] 구문에서 사용될 수 없다” [1.109.]

(Emotsiya qandaydir sabab tufayli yuzaga keladigan vaqtinchalik va soniyalik psixologik jarayon ekanligi sababli davomiylik va qandaydir xususiyatga egalikni ifodalay olmaydi. Bunday sifatlar koreys tilida [늘 ~ 하다 / ~ 한 성질이 있다] bilan birga qo‘llanila olmaydi.)

가. 아버지는 늘 정직하다.

(Dadam doim adolatlilar.)

나. 그녀는 착한 성질이 있다.

(U mehribon.)

다. 나는 { *늘 무안하다 / *무안한 성질이 있다 }.

(Men doim uyalaman./ uyalish xususiyatim bor.)

라. 나는 { *늘 기쁘다 / *기쁜 성질이 있다 }.

(Men doim xursandman./ xursandchilik xususiyatim bor*)

Ushbu misolda birinchi gapda 늘 정직하다 to‘g‘ri qo‘llanilgan bo‘lib, dadasini doim adolatli bo‘lganligini ifodalaydi. Ikkinchi gapda esa 착한 성질이 있다 qizni doimiy xususiyati ya’ni, xarakterini ifodalab kelmoqda. Demak, bu ikki sifat emotsiyani ifodalovchi sifat emas, balki, xususiyatni, xarakterni ifodalovchi sifat turiga kiradi. Uchinchi gapda esa, 늘 무안하다 / 무안한 성질이 있다 ishtirok etgan bo‘lib, tarjimada g‘alislik yuzaga kelgan. Oxirgi gapda ham 늘 기쁘다 / 기쁜 성질이 있다 gapda mantiqsizlikni keltirib chiqargan. Bundan ko‘rinib turiptiki, bu ikki sifat insonning qandaydir holatdan situatsiyadan kelib chiqqan emotsiyasini fodalovchi sifatlardir.

Yuqorida keltirilgan misollar va ularning tahlillaridan kelib chiqib, emotsiyani ifodalovchi sifatlar hech qachon ‘-고 있다’va ‘늘 ~ 하다 / ~ 한 성질이 있다’bilan birga qo‘llanila olmasligiga amin bo‘ldik.

Li Ho Sing (이호승) [1] emotsional sifatlar haqidagi tadqiqotlarida emotsiyani ifodalovchi sifatlarni o‘z navbatida ikki guruhga ajratadi.

1.Holat bilan aloqador sifatlar

2.Holat bilan aloqasiz sifatlar

“비상관적 감정형용사는 어떤 경험자의 감정 상태를 기술할 때 그 경험자 자체

에 대하여 다른 대상과의 관련을 고려하지 않고 기술하는 경우를 말한다. 즉, 인물의 정서 의미를 단지 하나의 경험자에 국한해서만 표현하고 다른 대상과의 관련성이나 관계 의미 등은 표현하지 않는 것이다. 상관적 감정형용사는 경험자에

대하여 그 경험자 자체만의 감정 상태를 표현하는 것이 아니라 항상 다른 대상과의 관련을 고려하고 그러한 대상에 대한 감정 상태 의미를 내포시켜 표현하는 경우를 이른다”[1.120.]

(Holat bilan aloqasiz emotsional sifatlar ishtirokchining emotsiyalarini ifodalayotganda uning butun bir holat bilan aloqasini hisobga olmasdan ifodalanganda ishlatiladi. Ya’ni, ishtirokchining emotsiyasinigina ifodalaydi. Holat bilan aloqador sifatlar esa, boshqa vositalarga ham aloqador bo‘lgan emotsiyani ifodalaydi.)

1-jadval: Koreys tilida emotsiyani ifodalovchi sifatlarning turlanishi

Holat bilan aloqador sifatlar	Holat bilan aloqasiz sifatlar
걱정스럽다(havotirli),고달프다(charchagan),고되다(qiyin),고맙다(rahmat),고소하다(ishtahaochar),고통스럽다(og‘riqli),괴롭다(qiynoqli),궁금하다(qiziqqan),귀엽다(yoqimli),귀중하다(qimmatbaho),귀찮다(joniga tekkan),그립다(sog‘ingan),기막히다(hayratlanarli)기쁘다(xursand),끔찍하다(daxshatli),놀랍다(hayratlanarli)눈물겹다(yig‘lashgatayyor),답답하다(dilig‘ash),두렵다(qo‘rqinchli),든든하다(mustahkam),따분하다(zerikkan),따갑다(qaynoq),딱하다(achinarli),막막하다(dovdiramoq)만만찮다(mo‘l-ko‘l),만만하다(yetarli),만족스럽다(qoniqarlil),멋있다(kelishgan),멋지다(kelishgan),못마땅하다(qoniqarsiz),무료하다(joni	고독하다(yolg‘iz),든든하다(kuchli),따분하다(zerikarli),벅차다(mushkul),뿌듯하다(xursand),분하다(achinarli),불안하다(notinch)불행하다(baxtsiz),비장하다(chidamli),상쾌하다(xushchaqchaq),서글프다(xafa),서럽다(xafa),심심하다(zerikarli),슬프다(xafa)쓸쓸하다(xafa),애매하다(nom a’lum),애틀하다(achinarli),억울하다(xafa),외롭다(yolg‘iz),언짢다(yoqimsiz),우울하다(depressiyaga tushgan),유감스럽다(afsuslanarli),유쾌하다(yoqimli),조급하다(shoshilinch),즐겁다(zavqli),착잡하다(notinch),참담하다(juda xafa),창피하다(uyatli),처절하다(juda

gatekkan), 무섭다(qo‘rqinchli), 밍다(naf ratlanarli), 분하다 (achinarli), 불쌍하다(achinarli), 불쾌하다(yoqimsiz), 비참하다(xafa), 뿌듯하다(xursand), 서운하다(xafa), 섬뜩하다(qo‘rqinchli), 섭섭하다(xafa), 슬프다(xafa), 쓸쓸하다(yoqimsiz), 아깝다(uvol), 아늑하다(qulay), 아름답다 (maftunkor), 아쉽다(achinarli), 안타깝다 (achinarli), 애석하다(xafa), 어이없다(bo‘lishimumkinemas), 언짢다(yoqimsiz), 엄청나다 (judakatta), 예쁘다(chiroyli), 우습다(kulgili), 유쾌하다(yoqimli), 의아하다(g‘alati), 자랑스럽다(faxrli), 재미있다(qiziqarli), 절실하다(aniq), 정겹다(ta’sirli), 정답다(do‘stona), 좋다(yaxshi), 즐겁다(zavqli), 지겹다joniga tekkan), 지루하다(zerikarli), 초조하다(havotirli), 측은하다(achinarli), 통쾌하다(mamnun), 편안하다(tinch), 흐뭇하다(qoniqarli), 싫다(yomon ko‘rmoq).	xafa), 처참하다(daxshatli), 초조하다(havotirli), 쾌적하다(yoqimli), 편안하다(tinch), 포근하다 (mayin), 푸근하다(mayin), 행복하다(baxtli), 허망하다(asossiz,bo‘sh), 허무하다(bo‘sh), 허탈하다(umidsiz), 험하다(qo‘pol).
--	--

Misol:

1. 가. 나는 객지에서 살게 된 것이 쓸쓸하기 그지없었다.

(Men begona yurtida yashaganim uchun juda xafa bo'lganman.)

가'. 나는 쓸쓸하기 그지없었다.

(Men juda xafa bo'lganman.)

가''. 객지에서 살게 된 것이 쓸쓸하기 그지없었다.

(Begona yurtida yashash juda xafa bo'lgan.)

나. 나는 그 일이 흡족하다.

(Men u ishdan mamnunman.)

나'. 나는 흡족하다.

(Men mamnunman)

나''. 엄마의 대답이 흡족하다.

(Oyimning javoblari mamnun.)

2. 가. 나는 객지에서 살게 된 것 때문에 쓸쓸하기 그지없었다.

(Men begona yurtida yashaganim uchun juda xafa bo'lganman.)

가'. 객지에서 살게 된 것이 나 때문에 쓸쓸하기 그지없었다.

(Begona yurtida yashash men sababli juda xafa bo'lgan.)

나. 나는 엄마의 대답 때문에 흡족하다.

(Men oyimning javoblari sababli mamnunman.)

나'. 엄마의 대답이 나 때문에 흡족하다. [1.33.]

(Oyimning javoblari men sababli mamnun.)

Yuqorida keltirilgan misollarning tahlili bilan tanishamiz. Birinchi misollar ketma-ketligida birinchi gapda so'zlovchini begona yurtida yashaganligi sababli xafa bo'lganligi ifodalangan. Bu yerda so'zlovchining emotsiyasi ko'rsatilmoqda. Ikkinchi gapda ham shunday ma'no, ammo, unda holat, ya'ni, sabab tuyshib qolgan. Bu esa unchalik mantiqsizlik keltirib chiqarmaydi. Uchunchi gapda esa tarjimaning o'zi mantiqsizligini, ya'ni, gap noto'g'ri tuzilganligini bildirmoqda. Holat bilan qo'llanilgan sifat o'zaro nomutanosib. Keyingi misolda esa shaxsning mamnunligi ifodalangan. Unda ham birinchi va keyingi gaplar mantiqqa ega, ammo, uchunchi gap tushunarsiz. Bu esa ushbu sifatlarni holat bilan aloqasiz shaxsning emotsiyasini ifodalovchi sifat ekanligini isbotlaydi.

Ikkinchi misollar qatorida esa qo'llanilgan bo'lib, birinchi gap qismlari o'zaro bog'liq, biroq, ikkinchi gap g'alislikni keltirib chiqarmoqda. Bu ham ushbu ushbu sifatlarni holat bilan aloqasiz shaxsning emotsiyasini ifodalovchi sifat ekanligini isbotlaydi.

Shuningdek, koreys tilida emotsional bo‘yoqdorlikka ega gaplar haqida No De Kyu (노대규) [2], li Shi Ye (이시애) [3], Chxve Xo Chol (최호철) [4], Chong Son Ju (정선주) [5] ham ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Xulosa

Koreys tilida so‘zlovchi hissiyotini ifodalashda undov so‘z, undov kesimlik qo‘shimchalari va emotsiyani ifodalovchi sifatlardan keng foydalaniladi. Emotsiyani ifodalovchi sifatlar ham sifatlar sarasiga kirib, ega va otning sifat va holatini ifodalaydi. Biroq, sifat deganda yodimizga tushadigan “nimani qanday?” ning “qanday?” o‘rnini o‘chirish mumkin va uni harakatga ko‘chirish mumkin. Emotsional sifatlar harakatni emas, balki, ishtirokchi boshidan kechirayotgan emotsional holatni ifodalaydi. Yani, emotsional sifatlar holat va harakatni birlashtirib ifodalaydi. Shu sababli ular ‘-고 있다’ bilan birga qo‘llanila olmaydi.

Emotsiya qandaydir sabab tufayli yuzaga keladigan vaqtinchalik va soniyalik psixologik jarayon ekanligi sababli davomiylik va qandaydir xususiyatga egalikni ifodalay olmaydi. Bunday sifatlar koreys tilida [늘 ~ 하다 / ~ 한 성질이 있다] bilan birga qo‘llanila olmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 이호승. 한국어와 중국어의 감정형용사 대조 연구. 한국, 2017.- 250 b.
2. 노대규. 한국어의 감탄문.- 국학자료원, 1997. 306 b.
3. 이시애. 한국어 간투사 연구. 조선대학교, 2011. 313 b.
4. 최호철. 현대국어 감탄사의 분절 구조 연구 -감정 감탄사를 중심으로. 한국어내용론, 2000.- B. 361-408
5. 정선주. 한국어 교육에서의 감탄 표현 연구. 한국언어문화교육학회 학술대회, Vol.2006 No.1.